



UDK:72.8

Nargiza SHAKUROVA,
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi
Maxbuba NUSRATOVA,
Qarshi davlat universiteti talabasi

QarDU dotsenti, PhD Z.Amirova taqrizi asosida

MNEMONIK STRATEGIYALAR ASOSIDA QISQA MUDDATDA SO'Z BOYLIGINI KENGAYTIRISH: BIR KUNDA 100 TA YANGI SO'Z O'ZLASHTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA METODIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqola bir kunda xorijiy tillardagi 100 ta yangi so'zni mnemonik texnikalar yordamida yodlashning ilmiy asoslari tahlilini, tajribalarga asoslangan holatda bir qancha texnikalar, jumladan, takrorlash, lokus usuli, lug'atni semantik bloklarga ajratish va hikoya metodi samaradorligining muhokamasini hamda kognitiv jarayonlar va xotiraga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning tahlilini o'z ichiga oladi. Shuningdek, quyidagi maqolada, mnemonik metodlarni o'quv jarayonlariga tatbiq etishga doir tavsiyalar, yangi tilni o'rganishda mnemonikaning o'rni haqida ma'lumotlar va muallifning shaxsiy qarashlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Mnemonika, an'anaviy usul, mnemonik usul, Lokus usuli, fazoviy xarita, Semantik bloklash, assotsiatsiya, vizual, hikoya usuli, takrorlash, xotira, axborot.

EXPANDING VOCABULARY IN A SHORT TIME THROUGH MNEMONIC STRATEGIES: PSYCHOLINGUISTIC AND METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF LEARNING 100 NEW WORDS IN ONE DAY.

Annotation

This article analyzes the scientific foundations of memorizing 100 new foreign words in one day using mnemonic techniques. Based on experiments, it discusses several techniques, including repetition, the method of loci, dividing vocabulary into semantic blocks, and the effectiveness of the storytelling method. Additionally, the article examines cognitive processes, factors influencing memory, and their impact. Furthermore, it provides recommendations for applying mnemonic methods in the learning process, insights into the role of mnemonics in language acquisition, and the author's personal perspectives.

Key words: Mnemonics, traditional method, mnemonic method, Loci method, spatial map, semantic blocking, association, visual, story method, repetition, memory, information.

РАСШИРЕНИЕ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА В КОРОТКИЕ СРОКИ НА ОСНОВЕ МНЕМОНИЧЕСКИХ СТРАТЕГИЙ: ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ УСВОЕНИЯ 100 НОВЫХ СЛОВ ЗА ОДИН ДЕНЬ

Аннотация

В данной статье анализируются научные основы запоминания 100 новых иностранных слов за один день с использованием мнемотехнических приемов. На основе экспериментов рассматриваются различные техники, включая повторение, метод локусов, разделение словаря на семантические блоки и эффективность метода повествования. Кроме того, в статье анализируются когнитивные процессы, факторы, влияющие на память, и их воздействие. Также представлены рекомендации по применению мнемонических методов в учебном процессе, информация о роли мнемотехники в изучении языков и личные взгляды автора.

Ключевые слова: Мнемоника, традиционный метод, мнемонический метод, метод локусов, пространственная карта, семантическое блокирование, ассоциация, визуальный, метод рассказа, повторение, память, информация.

Kirish. Til o'rganishning asosiy bosqichlaridan biri bu so'z yodlash hisoblanadi, ammo bu ko'pchilik o'rganuvchilar uchun eng murakkab jarayonlardan biridir. O'tkazilgan tatqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy yodlash usullarining samaradorlik natijalari past bo'lib, inson miyasi qabul qilgan axborotning 70%ini bir necha soat ichida unutadi [Ebbinghaus, 1885]. Shu bois, yangi so'zlarni yodlashda mnemonik texnikalardan foydalanish en muqobil usul hisoblanadi.

Mnemonika – bu vizual tasvir, assotsiatsiyalar va hikoyalardan foydalanish ga asoslangan holatda inson xotirasini samarali ishlatish maqsadida qo'llaniladigan turli texnikalar to'plami hisoblanadi [Bellezza, 1981].

Bugungi kunda, yangi tillarni o'rganish dunyo miqyosida muhim ahamiyat kasb etganligi bois, chet tilidagi so'zlarni yodlashning samarali va qulay usullarini ishlab chiqish butun jamiyat uchun katta foyda keltiradi. Ayniqsa,

ko'plab til o'rganuvchilar boshqa fanlarni ham o'zlashtirishlari, ish yoki boshqa majburiyatlari bilan vaqtni muvofiqlashtirishlari kerak bo'lganligi bois, vaqtni tejashga harakat qiladilar. Shunday ekan, yangi tillarni o'rganishda mnemonik texnikalardan foydalanish vaqtni tejashga hamda yangi ma'lumotlarni samarali ravishda eslab qolishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – mnemonik texnikalar yordamida yangi axborotlarni eslab qolishning samaradorligini tahlil qilishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, tadqiqot yordamida quyidagi savollarga javob topishga harakat qilinadi:

Mnemonik texnikalar va an'anaviy yodlash usulining samaradorligi orasida qanday farq mavjud?

Mnemonikaning qaysi texnikalaridan foydalangan holda axborotlarni samarali eslab qolish mumkin?

Uzoq muddatli xotirada ushbu texnikalarning qanday ta'siri mavjud?

Adabiyotlar tahlili. Mnemonika sohasida olib borilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, an'anaviy takrorlash usuliga nisbatan vizual tasvirlar, assotsiatsiyalar va hikoyalash orqali o'rganilgan so'zlar samaraliroq eslab qoladi.

Ebbinghausning unutilish egri chizig'iga ko'ra, insonning miyasi yangi axborotning 70% ini 24 soat ichida unutadi. Mnemolist Paivio (1986) tomonidan taklif etilgan "Ikki kodli nazariya" axborotni yodlash samaradorligini oshirishini tasdiqlaydi.

Shu bilan bir qatorda, "Semantik bloklash usuli yordamida so'zlarni 50% tezroq yodlash mumkin", - deydi Higbeye (2001). Bower (1970) esa so'zlar oddiy yodlashga nisbatan 2-3 baravar ko'proq vaqt davomida esda qolishini ta'minlash uchun hikoya metodidan foydalanish kerakligini aytadi.

Ushbu tadqiqotlardan kelib chiqqan holda, mnemonik usullar yordamida yangi so'zni samarali va tez yodlash mumkin, ayniqsa lokus usuli, assotsiatsiya va hikoya metodi bu jarayonda muhim ahamiyatga kasb etadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot jarayoni eksperiment sifatida ingliz tilini o'rganishga qiziquvchi talabalar o'rtasida o'tkazildi. Tadqiqotda 20 nafar talabalar ishtirok etishdi va ular ikki guruhga ajratildi (har bir guruhda 10 nafar ishtirokchi):

A guruh. An'anaviy takrorlash texnikasi yordamida so'zlarni yoz oluvchilar.

B guruh. Mnemonik usullar orqali yangi so'zlarni o'rganadiganlar.

Ushbu tajriba quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Har bir ishtirokchiga ingliz tilidagi avval duch kelmagan 100 ta yangi so'z taqdim etildi.

A guruh bu so'zlarni faqatgina an'anaviy takrorlash usuli orqali o'rgandi.

B guruh ishtirokchilari esa mnemonik texnikalar: semantik bloklash, hikoya metodi, lokus usuli vizual assotsiatsiyalar yordamida ushbu so'zlarni yodlashdi.

Ularga ushbu so'zlarni yod olish uchun 24 soat vaqt berildi va 1 kundan so'ng ularning har biri bilan savol – javob ishlari olib borildi.

Natijalarni baholash uchun esa mahsus baholash me'zoni ishlab chiqildi va ishtirokchilarning natijalari quyidagi me'zon asosida baholandi.

24 soat ichida yodlangan so'zlar soni (foizda).

1 kun ichida unutilgan so'zlar soni (foizda)

Har bir usulning qiyin va qulay jihatlari (ishtirokchilarning shaxsiy fikri asosida)

Ushbu so'zlardan kundalik so'zlashuvda foydalana olish darajasi (foizda)

Natijalar. 4.1. Eksperiment natijalari

Ushbu tajribadan quyidagi natijalar aniqlandi:

Guruh

1 kun davomida o'rtacha yodlangan so'zlar (%)

24 soatdan so'ng eslab qolingan so'zlar (%)

A guruh (takrorlash)

60 %

30 %

B guruh (mnemonik texnikalar)

85 %

70 %

4.2. Analiz va taqqoslash

A guruh ishtirokchilari 100 ta yangi so'zdan 60 tasini (60 %) 24 soat davomida yodlay olishdi va 1 kundan so'ng savol – javob jarayonida ular ushbu so'zlarning yarmini

unutishgani ma'lum bo'ldi. Ushbu usul orqali qatnashchilar faqatgina 30 % so'zni uzoq muddatli xotiraga o'tkaza olishdi.

B guruh esa taqdim etilgan so'zlarning 85 % foizini 1 kun ichida muvaffaqiyatli yodlashdi. Ammo 24 soatdan keyingi so'rovnomaga natijasiga ko'ra, ular bu so'zlarning 70 % ini uzoq muddatli xotiraga ko'chirishga muvaffaq bo'lishdi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, so'zlarni yodlashda mnemonik texnikalardan foydalangan guruh ishtirokchilari sezilarli darajadagi ustunlikni qo'lga kiritishdi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mnemonika axborotni eslab qolish va uni uzoq muddatli xotiraga ko'chirish uchun eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Ushbu natijalarni ilmiy jihatdan isbotlash uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi:

5.1 Lokus usuli va fazoviy xarita (Mind Place)

Mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yodlash samaradorligini sezilarli darajada oshiruvchi texnikalardan biri hisoblanadi. bu texnikaning asosiy jihati shundaki, inson yodlamoqchi bo'lgan ma'lumotlarini o'ziga tanish joylar bilan bog'lashi lozim. Masalan, siz o'z xonangizdagi har bir buyumlarga o'zingiz yodlamoqchi bo'lgan axborotlarni "joylashtirib" chiqishingiz mumkin. Maguire et al. (2003) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, bu texnikadan foydalanuvchilarning miya faoliyati boshqalarga qaraganda kuchliroq bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, bu usulda axborotlarni eslab qolish uzoq muddatli xotirani rivojlantiradi.

Misol: Xonadagi buyumlarni "Airport" mavzusiga oid so'zlar bilan bog'lash. Lokus usuliga ko'ra, siz yodlamoqchi bo'lgan yangi so'zlaringizni o'zingiz yaxshi biladigan joy – masalan, o'z xonangiz bilan bog'lab eslab qolsangiz, bu axborotning uzoq muddatli xotirada saqlanishiga katta yordam beradi. Quyida esa "Airport" mavzusiga oid so'zlarni xonadagi buyumlar bilan bog'lash misoli keltirib o'tilgan:

Masalan: Airport mavzuga oid so'zlarni xonadagi buyumlar bilan moslashtirish

Eshik (Check-in

Eshikdan kirishingiz bilanoq, o'zingizni aeroportda ro'yxatdan o'tayotgandek tasavvur qiling.

Stol (Boarding pass

Stolning ustida chipta (boarding pass) mavjud deb tasavvur qiling.

Oyna (Security check

Oynaga qaraganimizda o'z aksimizni ko'ramiz, bu esa aeroportda xavfsizlik tekshiruvidan o'tayotganimizda kameralar oldida turganimizga o'xshaydi.

Shkaf (Baggage claim

Sizning chamadoningiz shkaf ichida. Bu esa aeroportdagi yukxonaga o'xshaydi.

Buday yondashuv boshqa mavzular uchun ham qo'l keladi. Masalan, kafe, o'quv markazlar, savdo markazi yoki ofis kabi mavzular bo'yicha ham yangi so'zlarni yodlashda ushbu usuldan foydalanish mumkin.

Semantik bloklash va assotsiatsiya samaradorligi

Mutaxassislarning fikricha, semantik bloklash usuli yodlash samaradorligini oshiruvchi eng yaxshi yo'llardan biridir. Ushbu metodda so'zlar asosan mantiqiy guruhlariga bo'lingan holatda o'rganiladi va bu usul xotira yukini ancha yengillashtiradi. Inson bir vaqtning o'zida 5 – 9 ta infomatsion blokni bemalol eslab qolishi mumkin deb ko'rsatiladi, Miller (1956) tomonidan taklif qilingan "chunking" (blokka ajratish) nazariyasida.

Misol: "Education" (Ta'lim) mavzusiga oid so'zlarni semantik bloklash yordamida doimiy xotiraga ko'chirish. Buning uchun so'zlarni ushbu guruhlariga ajratib chiqishimiz lozim:

1. Akademik jarayonlar
 Scholarship → Turli akademik yutuqlarga erishgan talabani tasavvur qiling.
 Exam → O'zini xonada imtihon topshirayotgan hol his qilish.
 Lecture → Professor nutq so'zlayotgani va doskada tushuntirish berayotgan manzarani ko'z oldiga keltirish.
 2. Ta'lim muassasalari va tizimi
 University → Talabalar o'qiydigan katta universitet binosini tasavvur qilish.
 Curriculum → Rejada yozilgan turli fan nomlarini ko'z oldiga keltirish.
 Diploma → Bitiruv marosimida diplomni qo'lda ushlab turgan talabani tasavvur qilish.
 Lokus usuli singari bu usulni ham boshqa mavzularga ham tatbiq etish mumkin. Masalan, Business, Health,

Engineering kabi sohalarga oid bo'lgan so'zlarni ham huddi shu asnoda mantiqiy guruhlariga ajratib o'rganish mumkin.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan turli yodlash texnikalarni va ularning uzoq muddatli xotiraga ta'sirni o'rganish natijasida, mnemonik texnikalar odatiy takrorlash usuliga qaraganda taxminan 50% ga samarliroq degan xulosaga keldik. Chunki bu ikkala usulni ham talabalarda sinab ko'rilganda, ushbu texnikalar ularga axborotni uzoq muddatli xotiraga ko'chirish uchun qulay bo'lganini ko'rishimiz mumkin. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra ushbu usullar orasida samaradorligi eng yuqori bo'lgan usul bu "Lokus usuli" ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi. Shu bilan bir qatorda, mnemonika o'rganuvchilarga nafaqat yangi so'zlarni tez va oson yodlab qolish, balki tafakkur doirasini kengaytirish hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ham yordam beradi. Ushbu usullar orqali inson axborotni butun umrga yodda saqlashi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Bellezza, F. S. Mnemonic devices: Classification, characteristics, and criteria. Review of Educational Research, (1981). 51(2), 247-275.
2. Bower, G. H., & Clark, M. C. Narrative stories as mediators for serial learning. Psychonomic Science, (1969). 14(4), 181-182.
3. Ebbinghaus, H. Memory: A contribution to experimental psychology. Dover Publications. (1885).
4. Maguire, E. A., Valentine, E. R., Wilding, J. M., & Kapur, N. Routes to remembering: The brains behind superior memory. Nature Neuroscience, (2003). 6(1), 90-95.
5. Paivio, A. Mental representations: A dual coding approach. Oxford University Press. (1986).